

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY TA'LIM-TARBIYA  
JARAYONINI TASHKIL ETISHDA YANGI PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALAR.**

*Surxondaryo viloyati Termiz shahar 19-maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Eshqulova Mastura Axmadovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va yangi pedagogik metodlarni bir vaqtda tashkillashtirishning ahamiyati katta ekanligi xususida fikrlar yuritilgan. Fikrlarimizni asoslash uchun shu kabi metodlardan ba'zilarini keltirib o'tdik.

**Kalit so'z:** Boshlang'ich sinf, zamonaviy pedagogik texnologiya, yangi pedagogik metod, "Rang va shakllar boshqotirmasi metodi", "Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash metodi".

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yigindisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qad. va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. Pedagogik adabiyotlarda "Tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda Tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga karatilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yigindisini anglatadi. Bunday tushunishda Tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi goyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi Tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi. Tor ma'noda Tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviyaxloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi Tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday Tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning fakat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiyma'naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi. Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining Tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdur. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar

ishlab chiqarish. to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa, jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy intlar tizimiga ega bo'lishi lozim. Tarbiya jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izoxdab kelingan. Sho'ro zamonida hukmron kommunistik mafkura Tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan. Shuning uchun ham sinfiy jamiyatda Tarbiya faqat sinfiy xususiyatga ega bo'ladi va turli sinflarning Tarbiyasi bir-biriga qaramaqarshi turadi degan qarash qaror topgan. Holbuki, dunyo ilmi, ayniqsa, Sharq tarbiyashunosligi va o'zbek xalq ped.si tajribasi Tarbiyaning sinfiy ko'rinishga ega emasligini isbot etdi. Shuningdek, kommunistik mafkura tazyiki tufayli Tarbiyada ijtimoiy muassasalarning o'rniga ortiqcha baho berildi, bu jarayonda irsiy va biologik xususiyatlar deyarli xisobga olinmadi.

Ta'lim — bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli tipdagi o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish. va boshqa sohalarda ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi. Ta'limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma'lumotga bo'lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta'lim haqidagi pedagogik g'oyalarga qarab kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida Ta'limning mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o'zgarib borgan (qarang Pedagogika). Ta'lim mohiyat-e'tibori bilan dars berish jarayonini, ya'ni pedagog (o'qituvchi) faoliyatini, umuman o'quvchining bilish, o'rganish faoliyatiga rahbarlik qilishni hamda uqish jarayonini, ya'ni o'quvchi faoliyatini bildiradi. Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi — o'qituvchi va ta'lim olayotgan o'quvchilar faoliyatining yig'indisidan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsning sifatlari, dunyoqarashi, qobiliyati o'sadi. Ta'lim avlodlar o'rtasidagi ma'naviy vorislikni ta'minlaydi: kishilarning ijtimoiy tarixiy tajribalari yosh avlodga Ta'lim orqali o'tadi. Ta'lim haqida turli nazariyalar mavjud. Ba'zi nazariyalar Ta'limni jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy tuzilishiga bog'liq bo'lmagan hodisa sifatida baholasalar (qarang Pedotsentrizm), ba'zisi Ta'limning sinfiy xarakterga ega ekanligini, u jamiyatning har bir a'zosida muayyan siyosiy, falsafiy, axloqiy, huquqiy qarashlarni shakllantirish maqsadi sari karatilganligini ta'kidlaydi. Ta'limning maqsadi ob'yektiv hayot talablariga muvofiq holda o'zgarib borgan kabi, ta'limning xarakteri, yo'nalishi ham uning maqsadiga muvofiq o'zgarib boradi. Ta'lim dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatlar jarayonidir. Ta'lim bilish qobiliyatlari, qistuyg'ular, idrok, shaxsni tarkib toptiruvchi kuchli omildir. Ta'lim jamiyat qurilishining muhim

muammolarini hal qilish — jamiyatning moddiy-texnika bazasini yaratish, ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, yangi kishini tarbiyalashga yordam beradi. Ta'lim o'quvchining bilish qobiliyatini o'stiruvchi asosiy omildir. O'quvchilar qobiliyatini o'stirishga qaratilgan tizimlar muayyan didaktik qoidalar tarzida namoyon bo'ladi. Didaktik tamoyillarda ta'limning mazmuni va jarayonlariga qo'yilgan talablar belgilanadi (qarang Didaktika). Ta'limning maqsadi va vazifalari ijtimoiy tuzum, shuningdek muayyan o'quv yurtlari funksiyasiga muvofiq tarixan o'zgarib boradi. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan „Ta'lim to'g'risida“gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi Ta'lim tizimining barcha yo'nalishlarini takomillashtirish va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. 1996-yildan boshlab lotin imlosiga asoslangan yangi o'zbek alifbosi joriy etildi va shu yildan boshlab yangi yozuv asosida dasturlar, qo'llanmalar va darsliklar yaratishga kirishildi, o'qituvchilar lotin imlosi asosidagi yangi o'zbek alifbosi bo'yicha qayta tayyorlash kurslaridan o'tkazildi. Xalq ta'limi bo'limlari qoshida bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligini belgilaydigan „Tashhis markazlari“ tashkil etildi. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini reyting asosida nazorat qilish, maktab bitiruvchilarini yakuniy attestatsiyasini kompyuter yordamida test orqali amalga oshirish, Ta'lim amaliyotini diagnostik taxdil etish, Ta'lim muassasalarida marketing tizimidan foydalanish kabi qator pedagogik yangiliklar joriy etildi (qarang Ta'limning milliy modeli). Ta'lim mazmuni uning maqsadiga muvofiq, ijtimoiy shartsharoit, fan va texnika, san'at holati va shu kabini hisobga olgan holda belgilanadi. Kasbhunar kollejlari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlaridagi Ta'limning mazmuniga umumiy ma'lumotdan tashqari muayyan kasb va mutaxassislik uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, malaka va ko'nikmalar ham kiradi. Ta'lim mazmuni o'quv reja va dasturlari, darslik va boshqalarda yoritiladi. Ta'limda qo'yilgan maqsadga erishish uchun turli metod, vosita, tashkiliy tizim va shakllar (ma'ruza, suqbat, tajribalar o'tkazish, ko'rgazmali qurollarni qo'llash, kuzatish, mashq va shu kabi)dan foydalaniladi. O'quv jarayonida texnik vositalar (kino, televideniye, radio, kompyuter, EHM va boshqalar)ni keng qo'llash ta'lim metodini ishlab chiqishga katta ta'sir ko'rsatadi. Ta'limni tashkil etishning umumiy ta'lim, alohida (individual) ta'lim, tashkiliy ta'lim, sinfdars ta'limi, kurs tizimi ta'limi va boshqa turlari mavjud. Hozirgi sharoitda ijtimoiy talablar, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojlariga muvofiq ta'lim tobora takomillashtirilib, yangi metod va shakllari ishlab chiqilmoqda. Xususan, ta'limning keng umumiy ma'lumot asosida kasbiy ixtisoslashishning ahamiyati tobora oshmoqda, ommaviy kommunikatsiya vositalari — radio, televideniye, film, kompyuter, vaqtlı matbuotdan, shuningdek, o'z ustida ishlashning turli shakllaridan foydalanilmoqda.

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora

tadbirlar yigindisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qad. va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. Pedagogik adabiyotlarda "Tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda Tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga karatilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yigindisini anglatadi. Bunday tushunishda Tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi goyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi Tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi. Tor ma'noda Tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviyaxloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi Tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday Tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning fakat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy ma'naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi. Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining Tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdur. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish. to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim.[1] Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa, jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy intlar tizimiga ega bo'lishi lozim. Tarbiya jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izoxdab kelingan. Sho'ro zamonida hukmron kommunistik mafkura Tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan. Shuning uchun ham sinfiy jamiyatda Tarbiya faqat sinfiy xususiyatga ega bo'ladi va turli sinflarning Tarbiyasi bir-biriga qaramaqarshi turadi degan qarash qaror topgan. Holbuki, dunyo ilmi, ayniqsa, Sharq tarbiyashunosligi va o'zbek xalq ped.si tajribasi Tarbiyaning sinfiy ko'rinishga ega emasligini isbot etdi. Shuningdek, kommunistik mafkura tazyiki tufayli Tarbiyada ijtimoiy muassasalarning o'rniga ortiqcha baho berildi, bu jarayonda irsiy va biologik xususiyatlar deyarli xisobga olinmadi.[2] Sho'rolar pedogogikasida Tarbiya orqali xar qanday odamni istagan ijtimoiykiyofaga solish mumkin degan qarash hukmron bo'lganligi uchun ham uning shaxsni shakllantirishdagi o'rniga oshiqcha baho berildi. Tarbiyalanuvchi shaxsining Tarbiyaga berilish yoki berilmaslik xususiyatlarining hisobga olinmasligi

tarbiyaviy tadbirlarga maxliyo bo'lishdek pedagogik xatolikka olib keldi. Buning natijasida Tarbiya maqsadsiz bo'lib qoldi, tarbiyalanuvchilarga alohida shaxs sifatida emas, istalgan ijtimoiy yo'nalishga solinishi mumkin bo'lgan qiyofasiz tuda, olomon tarzida qarash karor topdi, Bu hol Tarbiyaning samarasizligiga olib keldi. Chunki Tarbiyaning asosiy ob'yekta bo'lmish shaxs va uning o'ziga xoslik jihatlari unutilgan edi. Sho'ro pedagogik tizimidagi kamchiliklarning ildizi, asosan, mana shu yondashuv tarziga borib taqaladi.

Hozirda zamon shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Har bir sohaga ilm-fanda erishilgan eng so'ngi yutug'lar, zamonaviy texnik vositalar kirib bormoqda. Shuningdek, ta'lim sohasida ham buni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Turli xil multimedia vositalari, elektron daskalar va boshqalar shular jumlasidandir. Darslarni tashkillashtirishda yuqorida ko'rib o'tgan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'z navbatida yangi metodlarni qo'llagan tarzda o'tkazishni taqoza etadi. Bu metodlar bevosita zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan birgalikda olib borilishi lozim. Darsni sifatini yanada oshirishga xizmat qilishi lozim. Bu tarzda darslarni tashkillashtirish, ayniqsa, boshlang'ich sinflarida yaxshi samara beradi. Chunki boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning psixologik holati katta sinf bolalarinikidan ancha farq qiladi. Ularni darslarga qiziqtirishda yangi pedagogik texnologiyalarning ahamiyati katta bo'lib, asosan, ko'rgazmali qurollar, turli interfaol o'yinlarni pedagogik texnologiyalar asosida dars mashg'ulotlarida qo'llash ancha qiziqarli va oson kechadi. Quyida shunda metodlardan bir qanchasini ko'rib chiqamiz. Rang va shakllar boshqotirmasi. Bu metod o'zining ko'plab spetsifik xususiyatlari bilan boshqa metodlardan ajralib turadi. Chunki bu metodda boshlang'ich sinf o'quvchilar bir vaqtning ichida o'tilayotgan darsdan tashqari rasm darsini, geometrik shakllarni ham o'rganishi mumkin. Rang va shakllar boshqotirmasi metodi quyidagi shaklda tashkillashtiriladi:

- Elektron daskaga rang va shakllar boshqotirmasining tasviri tushuriladi.

Tasvirda vertikal holatdagi rangli shakllar joylashgan bo'ladi.

- 1 – aylana, 2 – uchburchak, 3 – to'rtburchak... va h.k. Shakllar mavzuni talabidan kelib chiqib ortib boraverishi mumkin.

- U shakllarga gorizantal holatda xuddi shu shakllar o'rin almashgan holatda joylashtirilib chiqiladi.

- O'tilayotgan mavzunning savoli yoki jumboqli qisqa jummalari, so'zlari birinchi ustundagi rangli shakllarga yozib chiqiladi.

- O'sha savollarning javobi esa keyingi ustundagi rangli shakllarga yoziib chiqiladi.

- O'quvchilar esa navbatma-navbat daskaga chiqib savollar yozilgan rangli shakllarni to'g'ri javob yozilgan rangli shakllarga birlashtirishi lozim bo'ladi.

- O'quvchi savolga to'g'ri javob topgan bo'lsa ikkita rang birlashgan holda yangi rang hosil bo'ladi.

- O'quvchi savolga noto'g'ri javob bergan bo'lsa ranglar birlashmaydi.

Ko'rib o'tganimizdek bu metod interfaol o'yin shaklida olib boriladi. Bir qarashda metod soddadek ko'rinadi, lekin guvohi bo'lganimizdek u o'quvchini o'ylashga majbur qiladigan qiziqarli interfaol o'yin hisoblanadi. Interfaol metodlar

– shunday metodlarki, u o'quvchilarning o'zaro muloqot va o'zaro ta'siridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usuldir. “Interaktiv” so'zi ingliz tilidan olingan

“Interakt”, ya'ni “Inter” – o'zaro, “akt” – harakat, ta'sir, faollik ma'nolarini beradi.

Darslarni interfaol metodlarda tashkil etishning afzalliklarini ko'rib chiqsamiz:

O'z vaqtida o'quvchi –o'qituvchi –o'quvchilar orasida ta'limiy aloqalar o'rnatiladi.

- O'qitish usullari ta'lim jarayonida turli xil ko'rinishlarda kechadi (yakka, juft, guruh, katta guruh).

- O'quv jarayoni o'qish ehtiyojini qondirish bilan yuqori motivatsiyaga ega bo'ladi.

- O'zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o'quv materiali yaxshi esda qoladi.

O'quv jarayonida o'quvchining o'zi o'ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi. O'quvchi uchun dars qiziqarli o'qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi.

O'qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo'ladi. Har bir o'quvchining o'zi mustaqil fikr yurita olishiga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi. Interfaol usulda o'tilgan darslarda o'quvchi faqat ta'lim mazmunini o'zlashtiribgina qolmay,

balki o'zining tanqidiy va mantiqiy fikrlarini ham rivojlantiradi. Yuqorida ko'rib chiqqan metodimizning mantiqiy davomi sifatida quyidagi metodni qo'llashimiz mumkin. [3]

“Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash” metodi. O'quvchilar bilan ommaviy va guruh shaklda ishlashda ushbu metoddan foydalanish ham ijobiy natijalarni kafolatlaydi. Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

— o'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan mavzuning mohiyatini mantiqiy ketma-ketlikda yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalarni ifoda etgan maxsus kartochkalar majmui tayyorlanadi (har bir kartochkaning orqa tomoniga mavzu mohiyatini yorituvchi “yadro” tushunchaning bittadan harfi joylashtiriladi va maxsus qoplama bilan berkitiladi);

— har guruhga maxsus kartochkalarining alohida majmusi topshiriladi va kartochkalarni ulardagi tushunchalarga asosan mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish vazifasi yuklanadi

- O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi.

— guruhlar tomonidan topshiriq bajarilib bo'lingach, kartochkalarining orqa tomoni o'giriladi va maxsus qoplama ochilib, topshiriqning qay darajada to'g'ri bajarilganligi aniqlanadi. [5]

— Agar topshiriq guruhlar tomonidan to'g'ri bajarilgan bo'lsa, yakuniy jarayonda kartochkalar orqa tomonga o'girilganda mavzuning mohiyotini yorituvchi “yadro” tushuncha hosil bo'ladi. Metoddan foydalanishning afzalligi shundaki, bu jarayonda

o‘quvchilarda mavzuni muayyan qismlarga bo‘lib o‘rganish va qismlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlik hamda aloqadorlikni analiz va sintez asosida aniqlash ko‘nikmalari hosil qilinadi. [4]

**Xulosa qilib aytganda**, yangi metodlar ustida ishlash o‘qituvchini o‘z ustida ishlashga, izlanishlar qilishga undaydi. O‘z navbatida bunday qiziqarli metodlar asosida fanni kuzatgan o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirish samaradorligi oshadi. Darslarni qiziqish bilan tinglaydi va diqqati bo‘linmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.– T.TDPU,2003.[1]
2. S.Pirnafasova veb sahifasi. Interfaol metodlar. [2]
3. Ochilov M. Pedagogik texnologiyalar. - Qarshi: Nasaf, 2000. [3]
4. N.Atayeva.,M.Salayeva.,S.Xasanov. Umumiy pedagogika.–T.:“Fan va texnologiya”, 2013.[4]
- 5 [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz). [5]